

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2024 № 1 (24)



ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари
при Кабинете Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan
Philosophical Society of Uzbekistan

**FALSAFA VA HAYOT
XALQARO JURNAL**

**ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**

**PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL**

2024 № 1 (24)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.
Журнал выходит 4 раза в год.
The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Muxamedjanova Lalixon Ashuralievna

Zamonaviy jamiyatda ma'naviy begonalashuv va uni bartaraf etish yo'llari.....9-16

Nadirova Zoyira Payanovna

Intuitsiya kognitiv tafakkurda qaror qabul qilishimizga ko'maklashuvchi omil sifatida.....17-20

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Tulenova Gulmira Jandarovna

Ta'lim tiziminining samaradorligi va sifatini oshirishning asosiy omillari.....21-29

Abdullayev Temur Bobir o'g'li

Tafakkur uslubi transformatsiyasida ongning falsafiy xususiyatlari30-35

Usmanov Muhridin Abdimuratovich

Idrokning davr va obrazlarni tasavvur qilishdagi roli36-43

TARIX FALSAFASI VA FALSAFA TARIXI

Arziqulov Elboy Azim o'g'li

O'zbek xalq eposlaridagi ma'naviy qadriyatlarni barkamol avlod ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga ta'sirini oshirishning zamonaviy usullari va vositalari.....44-50

Xidirov Mustafu Toyirqulovich

Ilmiy maktablarning shakllanishi va ularning ilmiy faoliyatni tashkil etishdagi amaliy ahamiyati51-58

Qodirov Javlonbek Abdusattor o'g'li

Daniel Dennetning ong nazariyasi: keng qamrovli tahlil59-67

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Nishanova Ozoda Djalolitdinovna

Go'zallik kategoriyasi va uning o'zbek etnomadaniyatidagi o'rni68-76

Ruziyeva Ruxsora Xodiyevna

Vaqtning qiymati – inson umrining eng oliy qadriyati.....77-83

**DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR /
МИРОВАЯ КУЛЬТУРА И РЕЛИГИОЗНЫЕ ТРАДИЦИИ /
WORLD CULTURE AND RELIGIOUS TRADITIONS**

UDK: 111.852:39(575.1)



10.5281/zenodo.12611684

Nishanova Ozoda Djalolitdinovna

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

Ijtimoiy-gumanitar, aniq fanlar va sport kafedrasi professori, f.f.d.

E-mail: o.nishonovanuu.uz@mail.ru

(Toshkent, O'zbekiston)

**GO'ZALLIK KATEGORIYASI VA UNING O'ZBEK
ETNOMADANIYATIDAGI O'RNI**

Annotatsiya. Xalq, o'zining tarixiy-madaniy paradigmasiga ega millat faqat utilitar maqsadlari bilan chegaralanib qolmaydi, u yon-atrofini, hayotini go'zallik qonunlariga va talablariga muvofiq qayta qurishni, takomillashtirishni ham istaydi. Go'zallik – bu hissiy jihatdan o'ylangan shaklning namunasi bo'lib, boshqa estetik kategoriyalar unga muvofiq ko'rib chiqiladigan ideal. U estetikaning bosh kategoriyasi hisoblanadi.

Etnomadaniyatni estetika nuqtai nazaridan baholagandagina uning haqiqiy mohiyati, funksional ahamiyati, sotsium va inson taraqqiyotidagi o'rnini obyektiv, to'liqroq, chuqurroq anglash mumkin. Estetikaning mezonlari, usullari etnomadaniyatning mazmunidan, uning tarkibiy qismiga aylangan ijod namunalaridan, artefaktlari va an'alaridan izlanadi. Xalq ijodi va san'atidagi soddalik, ravon tilda gapirish, an'adagi iboralar, didaktik pand-nasihatlar ham mohiyatan go'zaldir. Ularda mazmun bilan shakl, mohiyat bilan ifoda bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etadi. Ma'lumki, mazmun bilan shakl, butun bilan qism, kichik bilan katta mutanosib, uyg'un kelishini Aristotel go'zallik nishonasi deb bilgan. Uning konsepsiyasiga muvofiq go'zallik garmoniyadadir. Mazkur maqolada go'zallik kategoriyasi, uning o'zbek etnomadaniyatidagi o'rni tadqiq etilgan. Shuningdek, tabiatda ham, ijtimoiy hayotda ham go'zallik kabi xunuklikning ham bo'lishi, ammo ushbu ambivalent hodisalar har doim ham yonma-yon kelmasligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: estetika, kategoriya, san'at, go'zallik, xunuklik, badiiy ijod, etnomadaniyat, xalq ijodi, xalq, o'zbek.

**КАТЕГОРИЯ КРАСОТЫ И ЕЕ МЕСТО В УЗБЕКСКОЙ
ЭТНОКУЛЬТУРЕ**

Аннотация. Народ, нация со своей историко-культурной парадигмой не ограничивается утилитарными целями, он также хочет реконструировать и улучшать свою среду и жизнь в соответствии с законами и требованиями

красоты. Красота — это образец эмоционально воспринимаемой формы, идеал, на фоне которого рассматриваются другие эстетические категории. Это основная категория эстетики.

Этнокультуру можно объективно, полно и глубоко понять только тогда, когда она оценивается с точки зрения эстетики. Критерии и методы эстетики ищутся из содержания этнокультуры, из примеров творчества, артефактов и традиций, ставших ее составной частью. Простота в народном творчестве и искусстве, свободная речь, традиционные выражения, дидактические советы по своей сути прекрасны. В них содержание и форма, сущность и выражение составляют единое целое. Известно, что Аристотель считал признаком красоты гармонию содержания и формы, целого и части, малого и большого. По его концепции красота – это гармония. В данной статье рассматривается категория красоты и ее роль в узбекской этнокультуре. Отмечается также, что в природе и общественной жизни есть как красота, так и уродство, но эти амбивалентные явления не всегда сосуществуют.

Ключевые слова: эстетика, категория, искусство, красота, безобразия, художественное творчество, этнокультура, народное творчество, народ, узбек.

CATEGORY OF BEAUTY AND ITS PLACE IN UZBEK ETHNO-CULTURE

Annotation. A people, a nation with its historical and cultural paradigm is not limited to utilitarian goals, it also wants to reconstruct and improve its environment and life in accordance with the laws and requirements of beauty. Beauty is an exemplar of emotionally conceived form, an ideal against which other aesthetic categories are considered. It is the main category of aesthetics.

Ethnoculture can be objectively, fully and deeply understood only when it is evaluated from the point of view of aesthetics. The criteria and methods of aesthetics are sought from the content of ethnoculture, from the examples of creativity, artifacts and traditions that have become its component. Simplicity in folk creativity and art, speaking in a fluent language, traditional expressions, and didactic advice are essentially beautiful. In them, content and form, essence and expression form a whole. It is known that Aristotle considered the harmony of content and form, whole and part, small and large as a sign of beauty. According to his concept, beauty is in harmony. This article examines the category of beauty and its role in Uzbek ethnoculture. It is also noted that there is beauty as well as ugliness in nature and social life, but these ambivalent phenomena do not always coexist.

Key words: aesthetics, category, art, beauty, ugliness, artistic creativity, ethnoculture, folk creativity, people, Uzbek.

KIRISH

“Estetika” atamasi yunonchada “sezish”, “his qilish” ma’nolarini anglatadi. Uni XVIII asrning o’rtalarida nemis ma’rifatparvar faylasufi Aleksandr Gotlib Baumgarten ilmiy muomalaga kiritgan. Baumgarten estetikani alohida mustaqil falsafiy fan sifatida ko’rsatdi. Estetika – tabiat, jamiyat, badiiy ijoddagi go’zallikning mohiyati va shakllari, san’at haqidagi falsafiy ta’limotdir. Ikki ming yildan ortiq vaqt mobaynida estetika falsafa, ilohiyot, badiiy amaliyot va badiiy tanqid doirasida rivojlandi. Rivojlanish jarayonida estetika predmeti murakkablashib, boyib bordi. Jumladan, antik davrda estetika go’zallik va san’at tabiati haqidagi umumiy falsafiy masalalar bilan shug’ullangan bo’lsa, o’rta asr estetikasiga ilohiyot sezilarli ta’sir ko’rsatdi, bu davrda estetika Xudoni bilish vositalaridan biri bo’lib xizmat qildi. Uyg’onish davrida estetik tafakkur, asosan, badiiy amaliyot sohasida rivojlanib, uning predmeti badiiy ijod va tabiat bilan bog’liq bo’ldi.

Yangi davrning boshida estetika san’at me’yorlarini shakllantirishga intildi [https://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/filosofiya/ESTETIKA.html]. Estetika “o’z-o’zi uchun” bo’lib qololmaydi, u insoniyatni azaldan qiziqtirib, xalqlarning o’yini, tasavvurlarini band etib kelgan vazifalarni hal etishga ham qaratilganidir. Shuningdek, estetik boyliklar, qadriyatlar ijtimoiy ong shakllari sifatida etnosning olamni gnoseologik idrok etishga, bilishga oid orzu-tasavvurlari, gipotetik qarashlarining ifodasi hisoblanadi. Estetika hayotiy-empirik ehtiyojlar mahsuli bo’lsa-da, undagi subyektiv omillarni, ya’ni gnoseologik izlanishlar bilan bog’liq ijtimoiy ong, estetik idrok, gipotetik orzu, tasavvurlar mavjudligini inkor qilib bo’lmaydi.

Inson sun’iy yashash muhiti, texnosfera, artefaktlarni yaratdi va yaratishda davom etmoqda. Bunday sharoitda olim, konstruktor, muhandis, texnologning mas’uliyat muammosi nafaqat axloqiy, balki butun dunyoni, butun insonni idrok etish va tushunish bilan bog’liq estetik jihatga ham ega bo’ladi. Biosfera va texnosferani qanday organik bog’lash mumkin? I.A.Gerasimovaning fikricha, butunlikning mohiyatini, uning bilish imkoniyatlarini va pirovardida inson tabiatini tushunmasdan turib, zamonaviy sivilizatsiya uchun bu muhim masalani hal qilish mumkin emas. Falsafiy tafakkur tarixida mudom butunni idrok etish go’zallik tushunchasi bilan uzviy bog’liq bo’lgan. An’anaga ko’ra, san’at go’zallik sohasiga mas’uldir va fanning ideali haqiqatdir, ammo bugungi kunda san’at asosan ilmiy, fan esa san’at hisoblanadi [Gerasimova I.A., 2011: 116 s].

MATERIALLAR VA METODLAR

O’zbek madaniyatining xalq ijodi, san’ati, badiiy-estetik hamda aksiologik jihatlarini o’rganishga bag’ishlangan ilmiy izlanishlarda – E.Umarov, U.Qoraboyev, A.Sher, M.Nurmatova, B.Xusanov, D.Qodirova kabi faylasuf, nafosatshunoslarning alohida o’rni bor. Ularning asarlari, tadqiqotlarida o’zbek madaniyatining shakllanishida muhim rol o’ynagan badiiy-estetik qadriyatlarining o’rni falsafiy jihatdan yoritilgan.

Maqolada Arastuning “Poetika” (“Nafis san’atlar haqida”), “Axloqi kabir”

(“Katta axloq kitobi”), “Ritorika” (“Xitoba”) (2012), V.S.Solovevning “Философия искусства и литературная критика” (1991), I.A.Gerasimovaning “Принцип красоты в науке” (2011), E.Umarovning “Estetika” (“Nafosatshunoslik”) (1995), A.Sher va B.Husanovning “Estetika” (2010) kitoblaridan foydalanilgan.

Maqolani tayyorlash jarayonida analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil kabi usullar qoʻllanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Goʻzallik kategoriyasi ulugʻvorlik, fojaviylik, kulgililik va boshqa estetik kategoriyalarni koʻrib chiqishda oʻlchov vazifasini bajaradi. Ushbu oʻlchovdan oshgani ulugʻvorlikdir. “Ulugʻvorlik insonning narsa, hodisalarga estetik va axloqiy mezonlar bilan yondashishi va ulardan yuksak hayratlanish tuygʻusini hosil qiluvchi estetik hissiyot majmuidir. Ulugʻvorlikning koʻlami goʻzallik kabi cheksizdir. Ulugʻvorlik oʻzida hajm, miqdor, koʻlam va buyuklikni mujassam etadi” [Sher A., Husanov B., 2010: B.114-115]. Fojia – bu ideal va haqiqat oʻrtasidagi nomuvofiqlikni koʻrsatuvchi kategoriya boʻlib, koʻp hollarda azob-uqubat, umidsizlik va oʻlimga olib keladi. Fojia zamirida ijtimoiy ziddiyatlar yotadi. Jumladan, unda hayot va oʻlim, ozodlik va qullik kabi shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlariga asoslangan hayotiy toʻqnashuvlar namoyon boʻladi.

“Goʻzallik – eng yuqori estetik qadriyatni anglatuvchi, hodisani mukammallik nuqtai nazaridan tavsiflovchi estetik kategoriya. ...Goʻzallik dunyo obyektlariga xos boʻlgan uygʻunlik, simmetriya, ritm, mutanosiblik, maqsadga muvofiqlik, shuningdek, hodisalarning tashqi koʻrinishini tavsiflovchi tovush va rang-yorugʻlik munosabatlaridagi oʻlchov sifatida belgilanadi. ...Goʻzallik ruh va materiya, mazmun va shakl uygʻunligi, ratsional va hissiy, obyektiv va subyektiv, tartibsizliklar tartibi, zaruratning erkin ifodasi sifatida namoyon boʻladi” [<https://studfile.net/preview/5283715/page:12/>]. Bir soʻz bilan aytganda, goʻzallik –mukammallik; goʻzallik – mutanosiblik.

Xalq ijodi va sanʼati subyekti – xalq ustasi, baxshi-shoir, masxaraboz, qoʻshiqchi yoki kuychi, raqqosa borliqqa shunchaki taqlid qilmaydi, tabiatdagi ranglarni, goʻzallikni asarlariga aynan koʻchirmaydi. Avvaliga, ijodkor goʻzallikning borliqda mavjudligini bevosita bilishi, anglashi lozim. Mazkur tabiat estetikasi subyektni maʼlum bir falsafiy mushohadalarga undaydi [Solovev V.S., 1991: 33 s.]. Biroq, ijodkor ushbu taassurot va mushohadalar bilan cheklanib qolmaydi, u tabiat maʼlum sabablarga koʻra, nihoyasiga yetkazolmagan, yakunlay olmagan goʻzallikni nihoyasiga yetkazishga, yakunlashga intiladi. Shu tariqa badiiy-estetik ijod boshlanadi, sanʼat asarlari yaratiladi.

Xalq ijodi va sanʼatidagi bosh estetik qadriyatlar goʻzallik va xunuklik bilan bogʻliq tasvirlarda oʻz ifodasini topadi. Toʻgʻri, estetika goʻzallik, nafosat qonunlarini oʻrgansa-da, ijtimoiy borliqda, inson xatti-harakatlarida goʻzallik va xunuklik ambivalent, bir-birini taqozo etuvchi, bir-biriga zid voqeliklar sifatida keladi. Shuning uchun estetika goʻzallik va xunuklikni yonma-yon oʻrganadi, ularni inson xatti-harakatlarida ambivalent holatlarni keltirib chiqaruvchi

tushunchalar deb biladi. E.Umarovning fikricha: “Tabiatda ham, ijtimoiy hayotda ham go‘zallik bilan xunuklik yonma-yon amal qilavermaydi, lekin san‘at (haqiqiy san‘at)da hamma narsa go‘zallik mahsuli bo‘lib namoyon bo‘ladi. San‘at go‘zallikning mujassamlashgan ifodasi bo‘lib, xuddi shu ma‘noda uni “nafosat qonunlariga ko‘ra ijod qilish sohasi” deb atash o‘rinli bo‘ladi” [Umarov E., 1995: 110 b.]. Mazkur yondashishni, fikrni tabiatga ham, ijtimoiy hayotga ham butunlay tatbiq etib bo‘lmaydi, unda biz tabiatdagi, ijtimoiy hayotdagi barcha narsalar go‘zal degan noreal va noobyektiv xulosaga kelamiz. Oddiy kuzatishlarimiz ham ko‘rsatadiki, tabiatdagi hamma narsalar ham, ijtimoiy hayotning barcha ko‘rinishlari ham go‘zal emas, ularda nomukammallik, noqislik, yovuzlik va xunuklik ko‘p. Agar tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsalar go‘zal bo‘lganida insonning vaqt, kuch sarflab, azoblanib, tunu kun orom bilmay go‘zallik yaratishini be‘manilik deb atashga to‘g‘ri kelardi. Masalan, balchiqni, unda ag‘anab yotgan cho‘chqani, kiyikning qornini yorayotgan yo‘lbarsni, ovqatga qo‘ngan pashshani hech kim go‘zal demaydi. Kalamush, kaltakesak, qurt-qumursqalarni ham go‘zal deya olmaymiz. To‘g‘ri, ushbu jonivor va hasharotlarni iste‘mol qiladigan, ularni yeb huzur topadigan kishilar bor, ular nazaridagi go‘zallik biznikidan farq qiladi. Lekin E.Umarov fundamental masalada haq. U yozadi: “Go‘zallik – estetikaning asosiy tushunchasi. Aslida estetikaning barcha muammolari go‘zallik muammosi bilan u yoki bu darajada bog‘liqdir. Go‘zallik nafosat olamining mag‘zi, asosiy belgisi, bosh xossasi, asosiy mohiyatini tashkil etadi. Shu bois estetikani go‘zallik haqidagi fan, go‘zallik falsafasi deb ham ataydilar” [Umarov E., 1995: 110 b.]. “Go‘zallik – bu asosiy estetik qadriyat bo‘lib, uni idrok etish qobiliyati esa estetik subyektning asosiy xossasidir. Bu xususiyat estetik ong va uning asosiy qismlariga ham taalluqlidir. Estetik histuyg‘u, eng avvalo, go‘zallikni his etish jarayonini anglatadi. Estetik orzu esa go‘zallikni inson xohlagan u yoki bu tasavvurlar tarzida ifodalaydi. Estetik did bo‘lsa ko‘p jihatdan shaxs va jamiyat nimani go‘zallik sifatida, nimani xunuklik sifatida idrok etishida namoyon bo‘ladi. Va nihoyat, estetik qarashlar go‘zallikning tabiati va mohiyati haqidagi fikrlarni anglatadi” [Umarov E., 1995: 110 b.]. Xullas, estetika tabiatda ham, ijtimoiy hayotda ham go‘zallik va xunuklik bo‘lishini rad etmaydi, ammo ushbu ambivalent hodisalar har doim ham yonma-yon yuravermaydi. Xunuklikni biz qanchalik kam idrok etishga, ko‘rish va tasvirlashga intilsak, bu go‘zallik shunchalik ko‘payadi, tabiat va ijtimoiy hayot shunchalik go‘zallashadi, degani emas. Go‘zallikni yoki xunuklikni ko‘rish va tasvirlash subyektning ixtiyorida, ijod huquqidir, biroq u xunuklik mavjudligini inkor qilolmaydi.

Salbiy xatti-harakatlar, yovuzlik, shumlik, nafsga berilishni estetik qadriyat demaymiz. Vaholanki, xunuklik, pastkashlik ham badiiy-estetik izlanishlar, tasvirlar doirasiga kiradi. Nima uchun shunday?, degan savol tug‘ilishi mumkin. Birinchidan, insoniyat ilm-fanga, ayniqsa ijtimoiy-gumanitar izlanishlarga pozitiv mohiyat beradi. Ilm-fan, tafakkuriy izlanishlar olamdan, inson xatti-harakatlaridan pozitiv topib, ushbu pozitivni yanada ko‘paytirish yo‘lidan rivojlanib keladi. Ular tabiat va ijtimoiy hayotda negativ narsalar, g‘ayriinsoniy, g‘ayriaxloqiy xatti-

harakatlar sodir bo'lishini ham, bedillik, zo'ravonlik, makr hayotning keng tarqalgan xususiyatlari ekanini ham biladi. Aynan shuning uchun ham ilm-fan, shu jumladan estetika ham ushbu negativ hodisalar o'rniga pozitiv, borliqni, inson hayotini go'zallashtiruvchi qadriyatlarni shakllantirishga intiladi.

Ikkinchidan, inson xarakterida, tabiatida nimagadir, kimgadir kuch ishlatish, o'z manfaati va qiziqishlarini ustun qo'yish, o'zi to'g'ri deb bilgan fikrlarni, qarash va dogmalarni yonidagilarga o'tkazish istagi bor. Goho u xunukni go'zal, go'zalni esa xunuk deb ataydi. Hatto etnoslar, elatlar o'rtasida go'zallik va xunuklik har xil tushuniladi, talqin etiladi. O'zbeklar chol yoki kampirning kalta shim, shortik kiyishini didsizlik, behayolik, xunuklik ifodasi deb biladi, ingliz yoki boshqa Yevropa xalqlari uchun u tabiiy ehtiyoj, norma, didli kiyinish hisoblanadi. Ushbu estetik plyuralizmni rad etish demokratik hayot talablariga to'g'ri kelmaydi.

Demak, etnomadaniyatdagi plyuralizmni tabiiy hol ekanini to'g'ri talqin qilish uchun ham maxsus ilm-fan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, estetik qadriyatlarni targ'ib etuvchi pozitiv tajribalar zarur. Ularni estetikasiz amalga oshirib bo'lmaydi. Estetika uchun ushbu plyuralizmlar va o'ziga xosliklarning mohiyatini, ulardagi umuminsoniy qadriyatlarni ochib berish muhimdir. Estetika xunuklik, pastkashlik kabi negativ hodisalarni tasvirlaganida, o'rganganida ularning umuminsoniy qadriyatlardan joy olish imkoniyatlarini kamaytirishga intiladi. Buni u go'zallikni, oliyjanoblikni ko'proq targ'ib etishi, xalqlar, kishilar diqqatini ularga qaratishi orqali amalga oshiradi.

Xunuklik, pastkashlik, tubanlik xalq ijodi va san'atining barcha shakllarida ham tasvirlanmaydi. Masalan, xalq naqqoshligi, kandakorligi, ganch san'ati, bayram tomoshalari, kashtachiligi, marosim folklori, ashulachiligi, xalq tabobati va pazandachiligi kabilarda umuman ularni tasvirlovchi syujetlar uchramaydi. Ular kishida badiiy-estetik didni shakllantiradi, hayotning betakrorligini, olam nafosat qonunlariga muvofiq yaratilganligini anglashga undaydi, go'zallikni tarannum etadi. Hatto motam marosimlarida ham badiiy-estetik mohiyat unutilmagan [Ashirov A., 2007: B. 195-218]. Bu o'rinda Aristotelning xarakterlarni tasvirlash haqidagi maslahatini eslash mumkin: "Shoir ham, – deb yozadi faylasuf, – xarakterida jahli tezlik, beg'amlik va shu kabi kamchiliklari bo'lgan odamlarni tasvirlar ekan, ularni qanday bo'lsa shunday (jahldor, beg'am qilib) va ayni chog'da go'zal odam qilib ko'rsatadi. Xarakterdagi shafqatsizlik xislatiga Agafon va Homer yaratgan Ahill misol bo'la oladi. Demak, (xarakter tasvirida) barcha aytilganlarga amal qilish zarur" [Arastu., 2012: 41 b.]. Aristotel xunuklikni xunuklik tarzida aynan ko'chirishni nazarda tutayotgani yo'q, u ijodkor xunuklikni tasvirlayotganda badiiy-estetik vositalardan foydalanishi orqali xunukni go'zal qilib ko'rsatish kuchiga ega ekanini nazarda tutayapti. Demak, ijodkor hatto xunukni ham (uni tasvirlash zarurligi g'oyasidan voz kechmasa-da, hatto voz kecha olmaydi ham, chunki u hayotning atributidir) tasvirlaganida ixtiyorida badiiy-estetik vositalar borligini unutilmaydi.

Yana bir muhim, ijtimoiy-amaliy va nazariy-falsafiy ahamiyatga ega tomon shundaki, ijodkor xunuklikni xunuk bo'lgani uchun, go'zallikni go'zal bo'lgani uchun tasvirlamaydi, agar u shunday qilsa, madaniy-ijodiy faoliyatning maqsadi va

mohiyatiga zid ish qilgan bo'lardi. Xunuklik va go'zallik tasvirlari tabiat yoki ijtimoiy hayotni ko'rsatish uchun emas, balki kishilarda, respicientda, jamiyatda xunuklikka salbiy qarashni uyg'otish, shu tariqa ularda go'zallikka pozitiv munosabatni shakllantirish uchun zarurdir. Ijodning, san'atning ushbu pirovard maqsadi etnomadaniy, etnoestetik merosda aniq anglangan va ifodalangan. Qaysi bir asarni olmaylik, xunuklik bilan go'zallik, yovuzlik bilan ezgulik, pastkashlik bilan oliyjanoblik o'rtasidagi kurash pozitiv badiiy-estetik qadriyatlar foydasiga hal qilinadi. Ushbu go'zal, oliyjanob g'alaba o'quvchini xalq qahramonlarining ezgu niyatlari va ezgu amallarini o'zlashtirishga, ulardan ibratli qadriyatlar yasashga undaydi.

Go'zallik va xunuklik badiiy asarlar (ya'ni badiiy hunarmandchilik, xalq amaliy san'ati, badiiy-estetik g'oyalar obyektivlashtirilgan boyliklar, artefaktlar)ning tashqi ko'rinishida, shaklida yorqin aks etadi. Ma'lum bir pozitiv badiiy-estetik tuyg'u uyg'otmaydigan beshakl, betartib narsalar, yon-atrofdagi kaos noqulaylik, jirkanishga asos bo'ladi, ayniqsa ko'rinishi iflos, chang yoki mog'or bosgan narsa dilimizda tug'yon uyg'otadi. Shuning uchun ham mutaxassislar shaklsiz narsaga shakl, betartib narsaga tartib, iflos narsalarga tozalik, ozodalik baxsh etish estetik diddan darak beradi, deb hisoblaydilar. To'g'ri, hamma shakl olgan yoki tartibga solingan narsalar ham go'zal bo'lavermaydi. Unda biz bir joyga to'plangan xazon va shox-shabballarni, g'ayriinsoniy, g'ayriaxloqiy g'oyalar bilan sug'orilgan varaqlar to'plami – kitobni go'zal deyishga majbur bo'lamiz. Masalan, markiz de Sad tasvirlagan fohishabozlik, zo'ravonlik, hayvoniy mayl-istaklar tasvirlangan syujetlarga qurilgan kitoblar hozir go'zal ko'rinishda, yuqori did bilan bezatilgan shakllarda Rossiyada chop etilmoqda. Ulardagi ichki mohiyat kitoblarning tashqi qiyofasiga, shakliga mutlaq ziddir. Seksual sadizm (de Sad nomidan olingan, keng tarqalgan ibora)ni targ'ib etuvchi bunday kitoblarni go'zallik timsoli deyish uchun insoniy-axloqiy qadriyatlardan chekinish lozim. Demak, narsalarning faqat shaklini go'zal qilish yetarli emas, mazmun bilan shakl go'zalligining uyg'unligi, mutanosibliigi zarur. Inson yaratadigan barcha narsalarda go'zallik, nafislik bo'lishi lozim, inson go'zal olam yaratishi bilan boshqa maxluqotdan farq qiladi, o'zining ijodkorligini isbotlaydi. To'g'ri, inson barcha faoliyatida ham go'zallik yaratishni maqsad qilib qo'ymaydi, shuning uchun uning badiiy-estetik faoliyatidan, ijodi va san'ati namunalaridan boshqa sohalarda go'zallik yaratish maqsadi yorqin ko'zga tashlanmaydi. Masalan, dehqon ekin ekayotganida, shofyor avtomobil haydayotganida, sotuvchi iste'mol buyumlarini sotayotganida go'zallik yaratishni xayoliga keltirmaydi, ularning funksional vazifasi boshqadir. Lekin ularning faoliyati ham estetik elementlardan mutlaq xoli emas.

Xalq ijodi va san'atining barcha ko'rinishlarida ham estetik maqsad, estetik g'oya bosh o'rinda turavermaydi. Xalq maqollarida hayotiy tajribalardan shakllangan hikmatlarni, xalq qo'shiqlarida ma'naviy-ruhiy kechinmalarning ohanglardagi ifodasini, xalq dostonlarida tarixiy bosqichlarda xalq hayotida, yodida saqlanib kelgan hodisalarni, xalq bayramlari va tomoshalarida kishilarning tashqi hodisa-voqealarga munosabatlarini ifodalash, tasvirlash maqsadi yotadi.

Ular ma'lum bir badiiy-estetik vositalar bilan zarur shaklga keltirilgach, axloqiy normalarga muvofiq tartiblashtirilgach, ya'ni mazmun bilan shakl, mohiyat bilan mahorat, ehtiyoj bilan talab uyg'unlashgach, badiiy-estetik ahamiyatga ega asarga, qadriyatga aylanadi.

XULOSA

Etnomadaniyat, jumladan, xalq ijodi va san'ati asarlari xalqning olamga, yon-atrofga faol badiiy-estetik munosabatlarining in'ikosidir. Xalq ijodkor, yaratuvchi sifatida ijtimoiy borliqda sodir bo'layotgan voqealarga, kechayotgan hodisalar va o'zgarishlarga passiv munosabatda bo'lolmaydi. Shuning uchun xalq ijodi va san'atida o'zbek xalqining ijtimoiy-tarixiy, ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy hayotida sodir bo'lgan voqea-hodisalarning badiiy-estetik in'ikosi o'z aksini topgan. Bu voqea-hodisalarning aynan, faktologik tasviri emas, ular xalqimizning badiiy-estetik olami, didi, dunyoqarashi va qadriyatlari sintezidan o'tgan ifodasidir. Shu bois ularda fantaziya, intuitsiya, irratsionallik, bo'rttirma, badiiy to'qima, mubolag'a, futurologik qarashlar mavjud. Eng muhimi xalq o'z hayoti va qahramonlarini real tasvirlar, obyektiv hodisalar darajasiga ko'tarolgan, ulardagi badiiy-estetik usullar badiiy g'oyaga xizmat qilgan.

Xalq ijodi va san'atida go'zallik, xunuklik, ulug'vorlik, tubanlik, fojaviylik, kulgililik kabi estetik voqeliklar etnomadaniy merosga muvofiq tarzda tasvirlanadi. Ular o'zbek xalqining go'zal va oliyjanob fazilatlarini, hayotini go'zallashtirish haqidagi tasavvurlarini, orzu – umidlarini ifoda etgan. Shu bilan birga xalq ijodi va san'atida hayotdagi kishilar xarakterida, axloqida, xatti-harakatlarida uchraydigan xunuklik, tubanlik, fojaviylik, g'ayriaxloqiy, g'ayriinsoniy illatlar ham tasvirlanadi. Mazkur illatlar ustidan go'zal va oliyjanob maqsad, fazilatlar g'olib keladi, xalq qahramonlari ijtimoiy idealga aylanadi.

Etnomadaniy merosdan joy olgan dostonlarda xalq ideali grotteks realizm tarzida tasvirlangan. Ulardagi go'zal va oliyjanob fazilatlar etnomadaniy an'analarga to'la muvofiqdir, etnoestetik tasvirlar esa ushbu fazilatlarga milliy-etnik mohiyat baxsh etgan.

BIBLIOGRAFIYA

1. https://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/filosofiya/ESTETIKA.html
2. Герасимова И.А. Принцип красоты в науке // Эпистемология & Философия науки. 2011. Т.XXX. № 4. –С.116-132. / <https://cyberleninka.ru/article/n/printsip-krasoty-v-nauke/viewer>
3. Sher A., Husanov B. Estetika. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. –114-115 b.
4. <https://studfile.net/preview/5283715/page:12/>
5. Соловев В.С. Философия искусства и литературная критика. – М.: Искусство, 1991. –33 с.
6. Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). –Toshkent: O'zbekiston, 1995. – 110 b.

7. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. –Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. –B. 195-218.

8. Arastu. Poetika (Nafis san’atlar haqida), Axloqi kabir (Katta axloq kitobi), Ritorika (Xitoba). –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. –41 b.

**FALSAFA VA HAYOT//
ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ//
PHILOSOPHY AND LIFE**

Tahririyat manzili	Адрес редакции	Editors Address
100085, O‘zbekiston Toshkent, Sergeli tumani, Mehrigiyo ko‘chasi -6	100085, Узбекистан, Ташкент Сергелинский район, Улица Мехригиё- 6	100085, Uzbekistan Tashkent Sergeli, Mehrigiyo street-6

Veb-sayt: <http://tadqiqot.uz/wp-content/uploads/2018/03/01/03pdf>
www.tadqiqot.uz ; E-mail: falsafa-h@mail.ru, Shermuhamedova_n@mail.ru
Telefon: (+99890) 358-62-70

MUASSISLAR:	УЧРЕДИТЕЛИ:	FOUNDERS:
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Imom al Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O'zbekiston falsafa jamiyati OOO tadqiqot	Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека Международный научно- исследовательский центр Имом ал Бухори при кабинете Министров Республики Узбекистан Философское общество Узбекистана OOO tadqiqot	The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek International Research Center Imom al Bukhori at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan Philosophical Society of Uzbekistan OOO tadqiqot

Tahririyat sifatli maqolalarni tanlash huquqini saqlagan holda taqdim etilayotgan materiallarning aniqligiga javob bermaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Редакция оставляет за собой право отбора качественных статей и не несет ответственности за достоверность информации в представленных материалах.

The editors reserve the right to select quality articles and is not responsible for the reliability of the information in the submissions.

Подписано для сайта
Тошкент шаҳри

Заказ №.